



## TA'LIMDA QORAQALPOQ MILLIY NOMALARINING O'RGANILISH QOIDALARI

**Rametullaeva Gulparshin**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Pedagogika  
fakulteti Musiqa talimi yo'nalishi 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7179615>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpoq milliy nomlarini o'rgatilishining usullari va noma tarkibida kelgan asos va qo'shimchalarning uslubiy vazifalari haqida so'z yuritilgan bo'lib, boshqa musiqiy maktablar bilan solishtirilgan.

Kalit so'zlar: Milliy kompozitsiya, an'anaviy ijrochilik, musiqa nazariyasi, xalq og'zaki ijodi, tembir, tovush takrori, musiqa tarixi.

Qoraqalpoq xalqining o'tmishi va kelajagidan voqif etib turuvchi asosiy va madaniy manbalardan yana biri bu xalq og'zaki ijodi bo'lib, bunda Qoraqalpoq xalq nomlari yuksak ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi.

„O'z o'rnida shuni aytish mumkinki, ijro usullarining sodda va ravon ekanligini ta'minlab beruvchi asarning ya'ni she'r tarkibining sodda ravon va yod olishga qulay ekanligi ham quyidagilarni ta'minlab beradi:

- Shakl va mazmuniy jihatdan tog'ri yondashuvni shakllantirish;
- ijro tonlarining - baland, past yoki o'rta - ma'lum darajada o'rganish uchun qulayligi;
- Ma'lum tartibda belgilangan komponentlar sanog'idan chiqmagan holatda o'rganishning sodda ekanligi va boshqalar.[1]

Ta'limda Qoraqalpoq milliy normalarining o'rganish qonun qoidalarining mazmuniy va nazariy shakllari ham mavjud bo'lib, bunda yuqoridarajali ta'lim maskanlari - konservatoriyalar, Musiqa oliy maktablari va boshqalar tomonidan belgilab berilgan ta'limning olib borish shakllari orqali o'rganing maqsadga muvofiqdir.

„Qoraqalpoq xalq nomlari bugungi kunda ham faol tarzda ishlatilishi bilan ajralib turadi. Misol uchun quyidagi she'rga e'tibor qilamiz :

Aylanayin oppog'imag,  
 Qizlar kiygan qalpog'imag,  
 Qatoringda Kim bo'lmay ay,  
 Ochilgan bolam bu baxtingay.  
 Hayya hayya hayya yuu,  
 Ochilgan bolam bu baxting ay"[2]

Yuqoridagi nomaning o'ziga xosligi shundaki, uni o'rganib olish nihoyatda oson bo'lib, yod olish jarayoni nisbatan osonlashadi, bunga asosiy sabablardan yana





ITALY



ITALY

biri qofiyalarning to'g'ri tanlangan ekanliklaridadir, jumladan: oppog'imag, qalpog'imag kabi shaklida kelishi.

„ Qoraqalpoqlarning she'riy ijodi, musiqa bilan uzviy bog'liq. Har qanday she'riy asarning yillar mobaynida xalq orasida bo'lishiga, uni faqatgina musiqa bilan qayta ishlash orqali bilan erishish mumkin bo'lgan. O'tmishdagi taniqli qoraqalpoq shoirlari, bir vaqtning o'zida turli musiqiy asboblarni chala oladigan musiqachilar va qo'shiqchilar - jirau yoki baxshilar bo'lishgan. An'anaviy musiqiy va she'riy ijod namunasi bu oddiy she'rga asoslangan “kosik” (qo'shiq) hisoblanadi. Qo'shiq musiqasi, musiqiy asboblarning musiqasi yoki doston hirgoya qilish noma atamasi bilan ta'riflanadi. Qoraqalpoqlarning musiqiy merosi, ularning og'zaki va musiqiy ijodini aks ettiruvchi bir afsona bilan bog'liq: “Butun dunyo bo'ylab sayohat qilib chiqqan qo'shiq, kunlardan bir kun, qoraqalpoqlarning manzilgohlaridan biriga tunash uchun to'htabti. Ko'rinmas va eshitilmas mehmon mehmonning tashrifi to'g'risidagi habar har tomonga tarqabti. Quvnoq ovulga to'plangan sanoqsiz qoraqalpoqlar hayratomuz mehmonni tundan kun chiqquncha, toki qo'shiq uhlashga yotmagunicha eshitishibti. Shundan so'ng qoraqalpoqlarning xotirasida ushbu kuylovchi mehmon haqidagi minglab hikoyalar, ertaklar, qo'shiqlar saqlanib qolibti.”[3]

Ta'lim jarayonlarini tashkil etishda Qoraqalpoq milliy nomalarini o'rgatish yoki ijro etishda ma'lum qoidalarning mavjud ekanligini inobatga olish o'rinlidir. Yuqorida qofiyalar bilan kelgan „ay” qo'shimchasining takrori ham ritmning saqlanishi, ohangning buzilmasligi, tovush temblarining bir maromda ketishini ta'minlab turuvchi asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Aksariyat hollarda, to'g'rirog'i bugungi kundagi ko'pgina musiqiy asarlarda - qo'shiqlarda - bunday takrorlar ko'zga tashlanmaydi, bu esa estrada ijrochisining xohishiga bog'liqdir.

„Yakkaxon ijrochi noma matnini o'ziga qulay shaklda, ovoz darajalariga moslab kuylaydi, bu yaxshi albatta, biroq ushbu nimadan yaratilgan ijroni boshqalar ham ijro eta olish qobiliyatining mavjud yoki mavjud emas ekanligi kishini o'ylantiradi”[4]

Bu borada xalq og'zaki ijodiga yuzlanadigan bo'lsak, oppog'im, qalpog'im deb yakkaxon ijrochining kuylashi nisbatan oson, ammo folklor jamoasi ya'ni xalq uchun biroz qiyinchilik tug'diroshi tabiiy, negaki xalqning necha kishiligi noma'lum, bunda qo'shiqning qoyifiyalari mavjud bo'lsada ko'pchilik ijro etyotgani sababli turlicha jaranglashi mumkin, bu esa ashulaning buzilishiga olib keladi, siz bilan biz yuqorida sanab o'tgan oppog'imag, qalpog'imag qofiyalaridagi birgina „ay” ko'p vazifa bajarib, folklorlarda barchaga oson bo'lishishni ya'ni folklor ijrochiligini ta'minlab turibdi.





ITALY

# SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi „ Musiqaning elementar nazariyasi” Toshkent.
2. B.X. Madrimov. „O'zbek musiqasi tarixi”. O'quv qo'llanma. – T.: „Barkamol fayz media”, 2018
3. Davron Qodirov „An'anaviy qo'shiqchilik”. Toshkent. „Iqtisod – moliya” 2007
4. [www.Karakalpakstan.travel/music/?lang=uz](http://www.Karakalpakstan.travel/music/?lang=uz)

